

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.K.Raximova

Badiiy matn talqini va badiiy matn tahlilining tarixiy taraqqiyoti 4

M.Sh.Abdurahimova

Sukut psixofiziologiyasi 12

TILSHUNOSLIK

M.Y.Mamajonov, D.J.Omoniddinova

Morfo-pragmatik va pragmasintaktik talqin 15

D.I.Mirzayeva, N.U.Nigmatova

O'zbek va ingliz tilshunosligida antroponimlarning masalasi 26

N.Abduraxmonova, A.Iskandarova

Parallel korpusda lingvomadaniy birliklarni lingvistik teglash masalasi 29

Q.Sh.Kakharov

Nemis va o'zbek oilalaridagi nutqiy etiketning o'ziga xos xususiyatlari 33

Z.B.Alimova

Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi ayrim otlarda arabiy ko'plikning ifodalanishi 37

D.R.Ismoilova

The linguopoetics of John Steinbeck's works 42

I.A.Soatov

"Ta'lim-tarbiya" tushunchasining etimologiyasi va lingvistik ifodasi 46

Д.И.Мирзаева, З.А.Абдуллаева

Анализ речевой агрессии через дискурсивный, прагматический и корпусный подходы 52

Ш.У.Жалолов

Лексико-семантические особенности овощных и бахчевых культур 56

Q.Sh.Kakharov

Nemis va o'zbek tillarida nutqiy etiketning lingvopragmatik tahlili 61

U.M.Askarova

Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning uyushishi (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida) 65

I.Sh.Kurbanova

Temir yo'l terminologiyasini o'rganish usullari va tadqiqot metodologiyasi 70

R.A.Xamrakulova

Margaret Tetcher va Tereza Mey nutqlarining lingvistik tahlili 74

Sh.S.Shadiyeva

Lingvistik nazariyani til o'qitishga integratsiyalash hamda pedagogik amaliyotga filologik yondashish 78

Д.О.Турдалиев

Праздник Масленицы как отражение язычества и христианских традиций в славянской культуре 84

L.T.Toshxonov

Inkorning psixologik kategoriya sifatida milliy romanchilik na'munalarida ifodalanishi 88

Ш.Н.Г.Мамедова

Новый стиль изображения в фольклорных произведениях Гашама Исабаили 92

A.M.Temirova

Abdulla Qahhorning "Muhabbat" qissasida qo'llanilgan oksimoronlarning struktur-semantik tahlili 98

F.H.Jamilli

The sociolinguistic nature of the representation of female dominance 102



UO‘K:81 25:811.111

O‘ZBEK VA INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA ANTROPONIMLARNING MASALASI**ВОПРОСЫ АНТРОПОНИМОВ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ****ISSUES OF ANTHROPONIMS IN UZBEK AND ENGLISH LINGUISTICS****Mirzayeva Dilshoda Ikromjonovna¹** ¹Farg‘ona davlat universiteti, Chet tillari fakulteti, ingliz filologiyasi kafedra mudiri,
f.f.f.d(PhD), dotsent**Nigmatova Nozimaxon Ulug‘bek qizi²** ²Farg‘ona davlat universiteti, lingvistika: ingliz tili mutaxassisligi magistranti**Annotatsiya**

Ushbu maqolada tilshunoslikning onomastika bo‘limiga kiruvchi antroponimlarning paydo bo‘lishi, o‘rganilishi va motivatsion xususiyatlari ochib beriladi. Qiyoslanayotgan tillardagi antroponimlarning o‘ziga xos semantik ko‘lami va nomlanishi tadqiq etilgan.

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы изучения, возникновения и мотивационных особенностей антропонимов, являющихся частью ономастики — раздела языкознания. Изучается специфика наименования и семантический объем антропонимов в сравниваемых языках.

Abstract

The article examines the issues of studying, origin and motivational features of anthroponyms, which are part of onomastics as a section of linguistics. The specificity of the name and semantic volume of anthroponyms in the compared languages are studied.

Kalit so‘zlar: til, lingvistika, antroponim, motivatsiya, motiv, onimizatsiya, struktura, antropotsentrizm.**Ключевые слова:** язык, антропоним, лингвистика, мотивация, мотив, ономастика, структура, антропоцентризм.**Key words:** language, anthroponym, linguistics, motivation, motive, onomastics, structure, anthropocentrism.**KIRISH**

Dunyo tilshunosligida onomastika (nomshunoslik) sohasi alohida o‘rin egallaydi. Onomasiologiyani ajralmas bo‘lagi hisoblangan antroponimlar har qaysi tilda o‘z o‘rniga ega, shu jumladan, ingliz va o‘zbek tili tilshunosligida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Antroponimlar o‘z negizida madaniyatshunoslik, etnografiya, tarix, sotsiologiya fanlari bilan ham uzviy bog‘liq. [1] Antroponimlar nafaqat nomlar va ismlar, balki o‘zlarida til tarixi va madaniyatini mujassamlashtirgan sohalardan biridir. Ko‘plab shaxs nomlari ma‘lum bir motiv asosida yaratilgan bo‘lib, inson ongi yuksalgani sayin turli xil so‘zlar bilan atala boshlagan. Hozirgi davr tilshunosligida shaxs nomlari bilan bog‘liq tushunchalarni mazmuniy maydon sifatida o‘rganish, ushbu lug‘aviy qatlamning tipologik tasnifini amalga oshirish hamda ularni o‘zaro izomorf va allomorf tomonlarini tadqiq etish ahamiyatlidir.

Jahon tilshunosligida M.V.Karpenko, K.B.Zayseva, D.Kristal, R.N.Eshliy, R.Koates, L.Vrayt va boshqa ko‘plab tilshunos olimlarning asarlari turli tizimli tillardagi antroponim komponentli lisoniy birliklarni qiyosiy o‘rganishga bag‘ishlangan. Turkiy onomastika muammolarining rivojlanish tarixida turkologiyasiga asos solgan rus tilshunoslari V.Radlov, S.E.Malov, V.Bartold, V.A.Gordlevskiy, N.K.Dmitriev, A.N.Samoilovich va boshqa olimlarning asarlari muhim o‘rin tutadi. Onomastika muammolari bilan S.B.Veselovskiy, V.A.Nikonov, N.K.Baskakov, A.V.Suslova, A.V.Superanskaya, L.V.Uspenskiy, V.D.Bondaletov kabi olimlar antroponimlarning kelib chiqishi va ularning rivojlanish tizimi bilan shug‘ullangan. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida onomastika muammolarini tadqiq etish ishiga o‘zbek tilshunoslari 1960-yillaridan alohida e‘tibor bera

TILSHUNOSLIK

boshlashganliklarini ta'kidlash joiz. O'zbek antroponimikasida E.Begmatova, N.Husanov, Sh.Yoqubov, M.Mamajonov va A.Gafurov kabi onomastlar ijodini ham qayd etishimiz mumkin. XX asrlarda turkiy antroponimlar tilshunoslik rivojida yuksak cho'qqilarni zabt etdi. Tilshunoslarning antroponimlar muammosiga, xususan shaxs nomlarining motiviga munosabati antroponimlar tadqiqotchilarning alohida e'tiboriga loyiq ekanligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Til tarkibi, tilning so'z boyligi har bir xalqdagi ijtimoiy, madaniy, ommaviy, siyosiy rivijlanishlar tufayli o'zgarishlarga uchraydi. Bunda shaxs nomlariga tegishli bo'lgan barcha ifodalar uslubiy tadqiq qilinadi. Insonning tashqi ko'rinishi, yashash tarzi, etik va estetik tabiati, millati, yashash joyidagi urf-odati, xarakteri kabi xususiyatlaridan kelib chiqib, turli xil nomlar qo'llaniladi. [2]

Antroponimlarni o'rganishda turli xil yo'nalishlar va yondashuvlar bilan zamonaviy tillardagi antroponimlarning semantikasida antropotsentrizmning umumiy tendensiyasi, shuningdek, shaxs nomlari ishtirok etgan frazeologik birliklarning tarqalishi va bunday holatlar jahondagi juda ko'p tillar uchun universalligidan kelib chiqadi. Dunyo tillarida ular insonning identifikatsion xususiyati sifatida faol qo'llaniladi, chunki bunday birliklar yuqori denotativ salohiyatga egaligi bilan tilshunoslar e'tiborini o'ziga tortadi. So'nggi yillardagi tadqiqotlarda antroponimlar kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilmoqda. Masalan, ayrim izlanuvchilar tomonidan antroponimlarning motivatsion xususiyatlari qiyoslangan, dunyo tillarida aks etuvchi onomastik birliklar ya'ni, shaxs nomlari o'rtasidagi asosiy farqlar aniqlangan.

Shaxs nomlarini birlashtiruvchi semantik guruh tarixan nisbatan ochiq tuzilishga ega bo'lib, bunda atamalar tilda yo'q bo'lib ketishi yoki yangilari bilan almashtirilishi mumkin. Antroponimlar haqidagi dastlabki adabiyotlardagi bitiklar ilmiy jihatdan emas, balki badiiy tomondan tasvirlangan. Lekin onomastikaning maqsadi shaxs nomlarini ilmiy o'rganish sanaladi. Shaxs nomlari terminologiyasining mavzusi ko'plab mualliflar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularning turli tillarda o'ziga xos nomlanishi tahlil qilingan. Shuningdek, inson ismlarining nomlanishini etimologik, semantik, lingvistik-geografik va boshqa jihatlarini tadqiqi bo'yicha izlanishlar mavjud.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ingliz tilshunoslarining atoqli otlarning tadqiqiga bag'ishlangan ishlarida ularning lug'aviy ma'no ifodalashi borasidagi qarashlar turlicha bo'lib, bunday qarashlarni ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga atoqli otlarning leksik ma'no ifodalamasligini ilgari surgan tadqiqotchilar kirsar, ikkinchi guruhga atoqli otlar ham lug'aviy ma'no ifodalashini ilgari surgan tadqiqotchilar kiradi. Birinchi guruh tarafdorlari atoqli otlar umumlashtiruvchi ma'noga ega emasligini, ular faqat farqlash vazifasini bajarishini asos qilib olsalar, ikkinchi guruh tarafdorlari atoqli otlar ham so'z sifatida lug'aviy ma'no ifodalashi zarurligini ta'kidlash bilan o'z fikrlarini asoslaydilar. Ularning fikricha, antroponimlarning lug'aviy ma'nosini "jins", "millat", "shaxs", "ijtimoiy kelib chiqish", "ijtimoiy fikr" mazmunlari tashkil etadi. Badiiy asarda antroponim o'zining semantik ko'lamiga ko'ra bevosita va bilvosita xususiyatga ega bo'lib, bu jihat etimologiya yoki kontekst orqali ko'zga tashlanadi. Ko'p hollarda esa badiiy asarlarda taxalluslar motivlashtiriladi va bular antroponimning eng motivlantirilgan ko'rinishi hisoblanadi. Chunki bunda shaxs nomi ijodkorning ijtimoiy kelib chiqishi, kasbi va joy-makon kabi motivlar asosida tanlanadi.

Ismlar boyligi turli tillarda miqdoran turli darajadadir. O'zbek va ingliz tillari ismlar majmuasining nihoyatda boyligi bilan ajralib turadi. Ismlarning miqdoran ko'pligi bu tillarda shaxslarning o'zaro farqlash, ajratib olish imkoniyatining yuqori ekanligidan dalolat beradi. Ismlar, laqablar, taxalluslar va kishilarning nomlanishi turlarining ko'pligi ona tilining bebaho, qimmatli boyligidir.

a) *turdosh otlardan hosil bo'lgan ismlar va taxalluslar.*

O'zbek xalqida:

Muhabbat (arab tilida) – suyukli, mehribon qiz, do'stlik, yaqinlik.

Asal (arab tilida) – shirin, bol, ya'ni yoqimtoy qiz.

Olma (o'zbek tilida) – olma pishganda yoki gullaganda tug'ilgan qiz yoki "olmagin", ya'ni yashasin, o'lmasin ma'nosida

Ingliz xalqlarida esa;

Amanda [3] (lotincha) – yoqimtoy, suyukli qiz.

Pamela (lotincha) – shirin, asal va go'zal qiz.

Apple (inglizcha) – xushfe'l qiz, shirin, hayotbaxsh.

b) atoqli otlardan hosil bo'lgan ism, laqab va taxalluslar.

O'zbeklarda:

Zuhra (arabcha) – Quyosh sistemasidagi katta planetalardan biri – Veneraning arabcha nomi.

Hulkar – yetti qaroqchi yulduzlaridan birining nomi.

Toshkan/Toshkanboy (o'z.-sug'd) – Toshkent shahrida tug'ilgan yoki otasi (biror qarindoshi) Toshkentga ketganda tug'ilgan bola.

Inglizlarda:

Comet[4] (kometa) – osmon jismlariga atab qo'yilgan bo'lib chaqqon, omadli bola.

Leo[5]- Shero yulduziga atab qo'yilgan mard, jasur, kuchli bola.

Brooklyn (tuman nomi) – NyuYorkning eng ko'p aholi yashovchi qismi. Ko'pincha Bruklinda tug'ilgan bolalarga qo'yiladi.

XULOSA

Lisoniy va madaniy nuqtayi nazardan kelib chiqib, antroponimlar turli madaniyatlar o'rtasidagi o'ziga xoslik va ijtimoiy farqlarning asosiy belgilarini aks ettiradi. Tahlillar natijasida yana bir aniqlangan holat shundan iboratki, qiyoslanayotgan tillardagi ismlar har ikki xalqlarda ham ajdodlarning kelib chiqishi, ota-ona orzusi, tabiatga muhabbat va ezgulikni aks ettiruvchi leksemalar orqali ifodalanganligi ma'lum. Ingliz va o'zbek antraponimlarini anglash madaniyatlar aro tafovut va o'xshashliklarni namoyon etuvchi muhim belgilar sifatida ham identifikatsion, ham ijtimoiy status vazifalarini belgilab beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бегматов Э. Антропонимияни тадқиқ қилишнинг социолінгвистик аспекти. – Тошкент: Ўзбек тили ва адабиети, 2011. 43 б.
2. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English language. – Cambridge: University Press, 2003. 775 p
3. Longman P. Dictionary of English Language and Culture. – London: Longman Group, 1992. 56 p.
4. McWhorter J. Words on the move. – London: Henry Holt and Company, 2016. 57 p.
5. Cambridge English dictionary [Электронный ресурс] – URL: – <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/>